

## ALISHER NAVOIY ASARLARIDA KOMIL INSON TASVIRI

**Muxitdinova Gulbahor Rustamjanovna**  
*Namangan davlat universiteti stajor  
o‘qituvchisi*  
Tel:90-279-73-79

*Annotatsiya: maqolada o‘zbek adabiyotining yirik vakili Alisher Navoiy asarlarida hazrati Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) hayotlari, go‘zal axloqlarining ifodalanishi haqidagi fikrlar olg‘a surilgan. Hazrat Alisher Navoiyning qimmatbaho asarlarida keltirilgan na’tlar izohlari ilmiy asoslangan.*

*Kalit so‘zlar: Quraysh, arab, Hoshimiylar, axloq, komillik, payg‘ambar, husn, ikki olam sarvari.*

Hazrat Alisher Navoiy o‘zining beباho asarlarida islom dini to‘g‘risida, xususan, ushbu dinning eng buyuk vakili Muhammad (s.a.v) haqida to‘xtalib o‘tadi. Shoирning barcha asarlari avvalida Allohga hamd, payg‘ambarlarga na’tlar keltiriladi. Navoiy komil inson sifatida hazrati Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v)ni ulug‘lar ekan, ul zotga xos bo‘lgan go‘zal xulq, fe'l-atvor, insoniy fazilatlar xususida fikr yuritadi.

Ma'lumki, diniy adabiyotlarda Muhammad (s.a.v) besh jihat bilan boshqa payg‘ambarlardan ustun qo‘yiladi:

1. Eng mukammal din – islom dinini olib kelganligi.
2. Qiyomat kunida mo‘min bandalarga shafoat qilishi.
3. Qur‘oni Karimning Jabroil alayhissalom orqali u kishiga nozil bo‘lishi.
4. Me’rojga ko‘tarilganligi.
5. Habib ul-rahmon ekanligi.

Shoirning “Hayrat ul-abror” dostoni yirik asar “Xamsa”dagi birinchi doston hisoblanadi. Mazkur dostonda Rasuli Akramning surat va siyratlari to‘la talqin etiladi. Na’tlar shoирning falsafiy, axloqiy-ta’limiy qarashlarini ifodalashda muhim vosita sanaladi. Ularda payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning hayotlari, yashash tarzlari, go‘zal axloqlari, insoniy fazilatlari, payg‘ambarlik maqomi va mo‘jizalari aks ettiriladi. Masalan, birinchi na’tda ul zoti sharifning tug‘ilishlari haqida so‘z boradi. Na’tda keltirilishicha, islom dinining so‘nggi payg‘ambari Muhammad (s.a.v) elchilik duri xazinasidir. Jahon dengizi tubidagi sadaf, ya’ni dur paydo bo‘lgan vaqtida shu dengiz qaynab-toshadi. Ul hazrat nurining qadimiy va beباho ekanligiga urg‘u beriladi. Allohnинг eng so‘nggi va komil payg‘ambari, barcha mavjudot va maxluqotning afzali Muhammad (s.a.v)da Allohnинг buyuk qudrati, tengsiz jamoli aks etganligi ta’riflanadi. Ul zot Alloh dargohida buyuklik sharafi – elchilik maqomiga erishganligini shoир alohida e’tirof etadi. Nubuvvat gulining guli, ya’ni payg‘ambarlarning eng buyugi, elchilik durining maxzani ekanligi

tasvirlanadi. U pardasini ochgan lahzalarda butun jahon bag‘riga o‘t tushganligi ta’riflanadi.

“Bo‘ldi risolat durining maxzani,  
Balki nubuvvat gulining gulshani.  
Bo‘lg‘ach – o‘q ul durg‘a sadafpo‘sh,  
Tushti jahon bahrig‘a jo‘shu xuro‘sh”. [Navoiy A. 10:27]

Keyingi na’tda esa hazrati payg‘ambarimizning yoshlik damlari, hayo va odob gullari ochilib, undan so‘ng nubuvvat mevasi bergani, ya’ni payg‘ambarlik maqomini olib, ikki olam ahliga rahmat soyasini solganligi to‘g‘risida so‘z boradi. Bu misralarda Muhammad (s.a.v)ga maqtovlar aytildi: Ey, tug‘ilishidanoq yangi chiqqan oydek ko‘ringan Zot! Sening yo‘ling shunday yo‘lki, bolalik chog‘ing qadimiy osmon odaticha edi. Sen insonlarning ham, farishtalarning ham joni, jononasidan! Sen ikki dunyoning yakkayu yagona gavharidirsan! G‘urra-har bir oyning birinchi kuni, bir kunlik oy degani. Tiflzod esa bolaligidan, tug‘ilishidan taniqli belgi ma’nosini aks ettiruvchi so‘zdir. Bu bayt orqali Rasuli Akramning ikki sifatlari bayon qilingan. Ya’ni, bolalik yo‘llari (tifli rihing) olam yaratilganidan beri mavjudligi bevosita u kishining nурдан yaratilganiga ishoradir. Shoir bu o‘rinda endigma dunyoga kelgan Muhammad (s.a.v)ni toza gavhar ekanligini, insu malaklarning joni va jononasasi ekanligini ta’kidlaydi.

“Ey ko‘runub g‘urra kibi tiflzod,  
Tifli rihing charxi qadimiynihod.  
Insu malak jonyu jononasasi,  
Ikki jahon gavhari yakdonasi”. [Navoiy A. 10:28]

Navoiy mahorati shunda ko‘rinadiki, u har bir so‘zdan va iboradan o‘rinli foydalanadi. Baytlardan birida hazrat Muhammad (s.a.v)ning tashqi ko‘rinishi haqida so‘zlar ekan, shunday deydi: Sen tashqi ko‘rinishidan bola bo‘lsangda, aslida aqli va donosan, dahosan, sen so‘zlaganingda bahodirlikdan, ezgulikdan boshqa narsa tilga olinmaydi. Misradagi “Vala lam-yaql” Qur’oniy oyatga ishora. Ul zot ko‘rinishidan hamma bolalar qatori bola edi. Boshqa bolalardan ajratib bo‘lmas edi. Lekin u kishini boshqa bolalardan ajratadigan jihat “aqli kul” edi. Aqli kul – buyuk aql, katta aql, ilohiy aql, to‘lishgan, mukammal aql. Yosh paytlaridayoq uning aqli boshqa bolalar aqlidan juda baland. Bu birikmani anglash uchun ikkinchi misra tayanch vazifasini bajaradi.

“Vala lam yaql” kalimasi “Sen bizning Robbimizsan” degan ma’noni anglatadi. Keyingi baytda esa “Sening tole’ yulduzing tuqqan kechasi osmon o‘zi unga sajda qilgan edi” degan ma’no mujassam. Demakki, payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) tug‘ilgan kechada butun falak sajdaga bosh qo‘yadi.

“Surat aro tifl, vale aqli kul,

Qavlung aro g‘ayri yali lam-yaqul.  
Axtaring ul tunki, tulu' aylabon,  
Charx salomig‘a ruku' aylabon”. [Navoiy A. 10:28]

Ma'lumki, azaldan payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v)dan rivoyat qilinadigan har bir hadis u kishining xulqi g‘oyat go‘zal bo‘lganligiga guvohlik beradi. O‘zi ham go‘zal axloq sohibi bo‘lgan shoir islom dini vositasida chin insoniy fazilatlarni targ‘ib qiladi. Jumladan, “G‘aroyib us-sig‘ar” asaridagi misralardan birida “Senga Yaratgan karam qilib, go‘zal axloq berdi. Barcha xilqat ichida eng go‘zal axloqni senga berdi” degan fikrlarni bildiradi.

“Zihe azalda karam aylabon sanga Halloq,  
Karimi xilqat ichinda makorimi axloq”. [Navoiy A. 11:330]

“Farhod va Shirin” dostonida ham ul zoti sharif haqida go‘zal satrlar uchraydi. Komillik timsoli sifatida ta'rif berilgan Muhammad alayhissalom yo‘qlik olamidan paydo bo‘lganligi, chinakam hazrati inson ekanligi, uning vujudga kelishi Alloh taolonning “Kun!” ya’ni “Bo‘l!” amridan so‘ng paydo bo‘lganligi, Muhammad alayhissalom nafaqat islom dini asoschisi, balki go‘zal va betakror axloq sohibi hamda komillik timsoli ekanligi ta'riflanadi.

“Muhammad kofu nung‘aqurratul‘ayn,  
Tufayli kavn o‘lub, yo‘q-yo‘qki kavnayn”. [Navoiy A. 9:315]

Alisher Navoiyning barcha asarlarida bo‘lgani kabi “Sab'ai sayyor” dostonida ham Muhammad (s.a.v)ga bag‘ishlangan na'tlar keltiriladi. Navoiy mazkur misralar orqali Muhammad alayhissalom haqiqatda Arabistonda yashab o‘tganligi, millati arab bo‘lib, quraysh qabilasi, Hoshimiylar avlodidan ekanligi, borar manzili Yasrib ekanligi haqidagi ma'lumotlar beriladi.

O‘sha davrlarda Arabiston dashtlarida joylashgan Madina shahri Yasrib deb atalganligi, bu shaharda Muhammad alayhissalomning muborak qadamlari qolganligi, umrining bir qancha muddati shu shaharda o‘tganligi haqidagi mulohazalar beriladi.

“Qurayshiy asl, Abtahiy mahmil,  
Hoshimi kesh, Yasribiy manzil.” [Navoiy A. 12:285]

Alisher Navoiy ijodida Rasuli Akram timsoli ulug‘lanar ekan, shu orqali u “Qur‘oni Karim”da keltirilgan oyat va hadislар haqida boshqalarga ma'lumot beradi. Hadislarni sabr bilan, diqqatni jalb qilgan holda tinglash, mazmunini anglash va amal qilish, shuningdek, ularni elga yetkazishni targ‘ib qiladi.

“Ulusni tutti Navoiy so‘zi aning birla  
Magar Rasuli alayhissalom qildi hadis”. [Navoiy A. 11:110]

Xulosa qilib aytganda buyuk shoir Alisher Navoiy o‘z asarlari orqali Muhammad alayhissalomni chinakam hazrati inson, komillikning yaqqol namunasi,

so‘nggi va mukammal din hisoblangan islom dinining ulug‘ payg‘ambari, go‘zal va betakror axloq sohibi ekanligini e’tirof etadi. Undagi husn, idrok, kuch-quvvat, pokiza qalb, otashin muhabbat hech bir insonda uchramasligini ta’kidlaydi. Oradan qariyb olti asr o’tganiga qaramay Navoiy asarlarining qiymati hali hanuz o‘z nufuzini yo‘qotmagan. Uning har bir satrida vafo, sadoqat, mehr-oqibat tuyg‘ulari tarannum etiladi. Ayniqsa, islom dini, uning muqaddas aqidalari, go‘zal hikmat va hadislari xususidagi fikrlar o‘quvchilarni o‘ziga jalb qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Al –Mufradot fi g‘ariybul Qur’on. –Toshkent: Fan, 2003. – B. 263.
2. Navoiy asarlari qomusiy lug‘ati. – Toshkent: Sharq, 2016.
3. Sh.Sirojiddinov, D.Yusupova, O.Davlatov. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2018.
4. M.Rajabova, Z.Amonova. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Asian Book House, 2020.
5. M.Abdulxayr. Navoiy asarlarining izohli lug‘ati. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent: Fan, 2018.
6. O.Davlatov. Navoiy she’riyatida Muhammad payg‘ambar (sav) siymosi. Toshkent, 2015.
7. Shamoilu mustafo. Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamga xos maqtalgan maqom va shafoat, Islom.uz, 2021.
8. D.Yusupova. Navoiyning diniy asarlari, Adabiyot.uz., 2021.
9. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. –Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2011. – B. 315.
10. Alisher Navoiy. Hayrat ul – abror. –Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2011. – B. 27-28.
11. Alisher Navoiy. G‘aroyib us – sig‘ar. –Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2011. – B. 110-330.
12. Alisher Navoiy. Sab’ai sayyor. –Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2011. – B.285.